



**KEKSALAR HAMISHA E'TIBOR VA E'ZOZDA**

**2**

**QUYOSH PANELLARI: TEJAMKOR ENERGIYA MANBASI**

**4**

**DARAXTLAR HAVONI TOZALAB, ISSIQLIKNI PASAYTIRADI**

**7**

**Po'lat o'tda toblanadi, odam - mehnatda**

# Metallurg inbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik  
jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2023-yil 26-sentabr № 9 (1531)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

**BAYRAMINGIZ MUBORAK BO'LSIN, AZIZ MURABBIYLAR!**

**1-OKTABR - O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI**



## TA'ZIM VA EHTIROM SIZGA!

**Hurmatli o'qituvchilar, qadrli ishlab chiqarish murabbiylari, metallurglar!**

Sizlarni kirib kelayotgan umumxalq bayrami – O'zbekiston Respublikasi O'qituvchi va murabbiylari kuni bilan tabriklayman!

Mamlakatimizda bu bayramni keng miqyosda, tantanali nishonlash yaxshi an'anaga aylangan. Bu yoshlarning barkamol voyaga yetishi, yetuk mutaxassis bo'lishida eng ko'p mehnati singadigan o'qituvchi va murabbiylarga xalqimiz tomonidan ko'rsatiladigan yuksak hurmat va ehtiromning yorqin dalilidir.

Xalqimiz azaldan ustozlarni ulug'lab, hamisha alohida hurmat-ehtirom ko'rsatib, ularni ota-onasi qatorida e'zozlab kelgan. Har birimizning o'z ustozimiz va murabbiylarimiz bor, ularsiz biz shaxs sifatida shakllanmagan, hayotiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lмагan bo'lardik. Erishgan yutuqlarimizda aziz ustoz va murabbiylarimizning beqiyos hissasi borligini minnatdorchilik bilan yodga olamiz.

"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining ko'p ming sonli jamoasida ham metallurglarning eng sara vakillari yoshlar murabbiylaridir. Ular yosh mutaxassislariga ishlab chiqarishni o'zlashtirishga ko'maklashib, ijodiy fikr yuritishlariga, mustaqil ravishda to'g'ri qaror qabul qilishlariga yaqindan yordam berib kelishmoqda.

Yosh mutaxassislarining qalbida kasblariga muhabbat uyg'onishida asosiy omillardan biri korxona rahbariyati va tajribali ishchi-xodimlarning ularni qo'llab-quvvatlashi va e'tibori muhim o'rinen gallaydi. Ta'kidlash kerakki, yoshlarga

kasb mahoratini va mehnat tajribasini o'rgatadigan, zarur bo'lqanda xatolarini to'g'rileydigan ham murabbiy. Tajriba va yoshlik uyg'unlashuvi albatta muvaffaqiyat sari olib boradi.

Kombinat murabbiylari shogirdlarini ishslashga va fikr lashga, o'z tanlovi uchun mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. Bu, ayniqsa, korxonamizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan olib borilayotgan, investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgan, innovatsion texnologiyalar faol joriy etilayotgan bir paytda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun hamma joyda yangi, zamonaviy bilimlar, ilm-fanning eng ilg'or yutuqlariga asoslangan yangi g'oyalar zarur. Muvaffaqiyat ko'p jihatdan murabbiylarga, ularning bilim va tajribasiga bog'liq. Biz, o'z navbatida, har narsada ularning yordamchisi bo'lish, qulay va samarali mehnat qilishlari uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.

**Hurmatli o'qituvchilar, qadrli murabbiylar!**

Sizlarni umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan tabriklash, barchaga chuqur hurmatimni izhor etish menga katta mammuniyat bag'ishlaydi. Sizlarga mashaqqatli, lekin juda ezgu va sharafli ishingiz uchun rahmat! Salomatlik, baxt, farovonlik va yangi yutuqlar hamisha hamrohingiz bo'lsin!

**Rashid PIRMATOV,  
"O'zmetkombinat" AJ  
boshqaruvi raisi – bosh direktor.**

## BUGUNGI SONDA

### BUGUNNING NAFASI

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilindi 3

### JARAYON

Mahsulotlarimizga talab yuqori 5

### FAXRIMIZ

Qahramon ustozning qahramon shogirdi 6

### KORRUPSIYA

Ijtimoiy so'rov nimani ko'rsatdi? 8

### SO'RAGAN EDINGIZ

Ta'qib uchun jazo beriladimi? 9

### SALOMATLIK

Ko'zingizni asrang! 10

### SPORT

Qiziqarli va murosasiz o'tdi 11

### TAFAKKUR QIL

Hurmat chegarasidan oshgan shogird 12

## KEKSALAR E'TIBOR VA E'ZOZDA

Mamlakatimizda keksalarga doimiy g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatish, ularning sog'lagini tiklash hamda jamiyat hayotida faol qatnashib, ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bundan bir yarim yil avval O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining tashkil etilganligi ham fikrimizning yorqin namunasidir. Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasini, munosib turmush darajasini ta'minlash Kengash faoliyatining asosiy yo'naliishlaridan hisoblanadi.

Shuningdek, Kengashimiz faxriylari ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kengaytirish, ularning konchilik va metallurgiya sohalari korxonalarida yoshlar bo'yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadlarida yosh mutaxassislarni yuksak ma'naviyat, mehnatkashlik va vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash borasidagi ishlarda faol ishtirokini ta'minlash kabi vazifalarni ham amalga oshirib kelmoqda.

Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining uch ming nafar a'zosi bo'lgan Bekobod shahridagi hududiy filialimiz ham bu yo'naliishlarda munosib ishlarni tashkil etib kelmoqda.

Pensionerlar va faxriylar ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, shuningdek, sport tadbirlari tashkil etilyapti, yoshlar bilan, shu jumladan, sohaga oid oliy va professional ta'lim muassasalarida uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Konchilik va metallurgiya sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish, shuningdek, sohada bardavom vorislikni ta'minlovchi samarali ustoz-shogird tizimini yo'nga qo'yishda ham kombinatimizning mehnat faxriylari o'zlarining munosib ulushlarini qo'shib kelishmoqda.

Kengashimiz tashabbusi bilan soha pensionerlari va faxriylarining boy kasbiy tajriba va ko'nikmalaridan unumli foydalilanigan holda Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi "Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS"ning Olmaliq

shahridagi filialida hamda Toshkent davlat texnika universitetining Olmaliq filiali va sohaga oid boshqa ta'lim muassasalarida muntazam asosda ma'ruzalar tashkil etilyapti. Faxriylar mehnat faoliyatini endi boshlagan yosh metallurglarga o'z tajribasini o'rgatib kelmoqdalar.

Nafaqadagi faxriylarimiz ahvoldidan xabar olinmoqda, respublika sog'lilikni saqlash vazirligi yo'llanmasi bilan malakali vrachlar yordamida Bekobodda faxriylar tibbiy ko'rikdan o'tkazilmoqda. Bemor va kam ta'minlanganlarga yordam ko'rsatish, shifoxonalarda davolash, sanatoriylarga bepul yo'llanmalar ajratish rejali yo'nga qo'yilgan.

Kengashimiz faoliyat ko'rsata boshlagan bir yarim yildan oshiq vaqtida kombinatimizning 300ga yaqin mehnat faxriylari sog'liliklarini mustahkamlashlari uchun ularga Respublika sanatoriylariga bepul yo'llanma berildi. 115 nafar faxriy shifoxonada bepul davolandi. Ularga zarur barcha dori darmonlar ham olib berildi. Moddiy kam ta'minlangan 280 nafarga yaqin a'zolarimizga pul mablag'i bilan yordam ko'rsatildi.


Faxriylarimizga 5680 kilogramm nok, shaftoli va olxo'ri kabi mevalar bepul tarqatildi. 297 nafar a'zolarimizning Samarqand shahriga, 50 nafari esa Toshkent shahriga sayohatga borib kelishlarini tashkil etdik.

Faxriylarimizning 70, 75, 80, 85, 90 va undan katta yoshdagи yubileylarini nishonlanganlardan 217 nafariga kombinatning "Tashakkurnomasi" va sovg'alarni topshirdik.

Ustoz va murabbiylarni, barcha faxriylarimizni O'qituvchi va murabbiylar umumxalq bayrami bilan birga 1-oktabrda nishonlanadigan xalqaro qariyalar kuni bilan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonardonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman. Doimo sog'-omon bo'ling, azizlar!

**Ilhom QURBONOV,  
O'zbekiston Respublikasi konchilik  
va metallurgiya sanoati faxriylari  
Kengashining Bekobod filiali raisi.**



Joriy yilning 12-13-sentabr kunlari Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi Bekobod shahar hududiy filiali tomonidan 50 nafar kombinatimiz faxriylarining yurtimizning qadimiy Samarqand shaxriga sayyohati tashkil etildi.

Ikki kunlik sayyohat davomida faxriy metallurglar "ochiq-osmon osti muzeyi" deb nom olgan ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan shaharning



## USTOZ – OTANGDAY ULUG'

Ustoz – otangday ulug', ustoz qadami qutlug', Ustozning har kalomi ilmu hikmatga to'lug'. Ustozning dili ravshan, ustoz makoni yorug', Unib chiqar, albatta, ustoz tashlagan urug', Ustoz qadami qutlug', ustoz – otangday ulug'.

Temur bosh qo'ydi mangu ustozning poyiga, Ustoz o'xshar olamning quyoshiga, oyiga, Bilim nuri yog'ilalar qadam qo'ygan joyiga, Yo'llaradolat, vafo, muhabbat saroyiga, Ustoz qadami qutlug', ustoz – otangday ulug'.

Ota-onan farzandni keltiradi dunyoga Ustoz esa cho'mdirar ilmu-hikmat, ziyoga, Yerdagi bolalarni ko'taradi samoga, Ota-onan fanosin aylantirar baqoga, Ustoz qadami qutlug', ustoz – otangday ulug'.

Deydilar, ustoz jabri – ota mehridan afzal, Shogirdlarning iqboli – ustoz jabriga badal, Navoiy demish, kasbni egallagil mukammal, Saodatning kaliti, bilgilki, ilmu amal Ustoz qadami qutlug', ustoz – otangday ulug'.

Ustoz ko'rmanganlarning yo'rg'alash odati, Ezgu bo'lsin har kimning so'zi sa'y, niyati, Kam ye, kam de, kam uxla – ustozlar nasihat, Nechoq' buyukdir ustoz kalomining quadrati. Ustoz qadami qutlug', ustoz – otangday ulug'.

Najot gulin o'stirar Avloniy gulbog'ida, Haq olinur berilmas – Behbudiy sabog'ida, Oqilxonning siyoshi "Alifbo" varog'ida, Ustozlar iydin yozay qasidam adog'ida, Ustoz qadami qutlug', ustoz – otangday ulug'.

**Mirza QAYNAROV.**

## E'TIBORDAN MAMNUNMIZ

tarixiy obidalari, serjilo me'moriy manzaralari bilan yaqindan tanishdilar. Shu bilan birga ushbu qadimiy shaharning tarixiy qadamjolarini ziyorat qilishib, katta qiziqish bilan tomosha qilishib, unutilmas tas-surotlarga ega bo'lib qaytishdi.

Sayyohat yakunida faxriylar mazkur sayyohat tashkilotchilariga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.

- Samarqandda yaxshi kutib olishdi. Gidlar hammasini tushuntirishdi. Mehmonxona ham bizga ma'qul keldi. Ovqatlanishlar restoranda tashkil etildi. Bizga ko'rsatilgan bu e'tibordan juda mammun bo'ldik, - deyishdi faxriylar.

**Muhabbat RAHMATOVA.**



## “O’ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI QABUL QILINDI

President Farmoni bilan “O’zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi hamda uni 2023-yilda o’zi vaqtida va sifatli amalga oshirish bo’yicha Prezident qarori qabul qilindi. “O’zbekiston-2030” strategiyasiga ko’ra, respublika 7 yil ichida daromadi o’ttachadan yuqori davlatlar qatoriga kirishi, xalqaro standartlarga to’liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimi yaratilishi, xalq xizmatidagi adolatli davlat barpo etilishi kerak.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O’zbekistonni barpo etish bo’yicha xohish-irodasini ro’ybga chiqarish, har bir fuqaroga o’z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog’lom, biliqli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo’g’iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish,adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minalash maqsadida jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O’zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi.

Farmonning 1-bandida yozilishicha, strategiyada quyidagi asosiy g’oyalar aks etgan:

- barqaror iqtisodiy o’sish orqali daromadi o’ttachadan yuqori bo’lgan davlatlar qatoridan o’ren olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to’liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamnaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavf-

sizligini kafolatli ta’minalash.

Strategiyadagi jami 100 ta maqsad quyidagicha 5 ta yo’nalishlarga bo’lingan:

Har bir insonga o’z salohiyatini ro’ybga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish (ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, ma’naviyat masalalari).

Barqaror iqtisodiy o’sish orqali aholi farovonligini ta’minalash (YAIM, byudjet, sanoat, investitsiya, bank, “yashil iqtisodiyot”, energetika, transport, qishloq xo’jaligi, eksport, monopoliyalar, IT, turizm, xizmatlar, infratuzilma, uy-joy masalalari).

Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish.

Qonun ustuvorligini ta’minalash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish (mahalla, mahalliy davlat organlari, vakillik organlari, davlat xizmati, davlat xizmatlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, sud-huquq, inson huquqlari, advokatura, korrupsiya masalalari).

“Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish (tashqi siyosat, Jahan savdo tashkilotiga a’zolik, xorijdagi vatandoshlar, mehnat migrantsiyasi, qurolli kuchlar, favqulodda vaziyatlar, millatlararo totuvlik masalalari).

## KAPITAL BOZORI RIVOJLANTIRILADI

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti “Kapital bozorini rivojlantirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida” qaror qabul qildi.

Qarorga ko’ra, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bankning “Qimmatli qog’ozlar markaziy depozitariysi” davlat unitar korxonasi “Qimmatli qog’ozlar markaziy depozitarysi” aksiyadorlik jamiyatiga aylantiriladi va uning faoliyati Markaziy bank tomonidan tartibga solib boriladi.

“O’zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ ta’sischiligidagi “Milliy kliring markazi” AJ tashkil etiladi.

2025-yil 1-yanvardan davlat va korporativ qimmatli qog’ozlarning yagona hisobi “Qimmatli qog’ozlar markaziy depozitariysi” AJda yuritiladi.

2028-yil 31-dekabrgacha “Qimmatli qog’ozlar markaziy depozitariysi” AJ, “O’zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ va “Toshkent respublika fond birjasi” AJ mablag’larni maqsadli ravishda ularni rivojlantirishga yo’naltirgan holda dividendlarni hisoblash va to’lashdan ozod qilinadi.

Kapital bozori sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimi joriy qilinadi.

### 2023-yil 1-oktabrdan:

- davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo’lgan korxonalarning aksiyalari fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so’ng kamida 7 yil davomida mazkur korxonalar sof foydasining kamida 30 foizi dividend



to’lashga yo’naltiriladi;  
- davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo’lgan korxonalarga xizmat ko’rsatuvchi

anderryterlarning xizmat haqi qimmatli qog’ozlar rejalashtirilganga nisbatan qimmatroq va (yoki) ko’proq joylashtirilganligi natijasida shartnomada kelishilgan miqdordan oshgan holllarda, shartnomada boshlang’ich narxini 10 foizdan ortiqqa oshirmaslik to’g’risidagi chekllov bekor qilinadi.

Qimmatli qog’ozlar fond birjasi listingiga kiritilmagan aksiyadorlik jamiyatlarining rasmiy veb-sayti bo’lishi haqidagi majburiy talab bekor qilinadi, bundan davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo’lgan aksiyadorlik jamiyatlar mustasno.

Kapital bozori sohasida avval berilgan litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar o’z kuchini saqlab qoladi, mazkur qaror qabul qilinganligi ularni bekor qilish yoki o’zgartirishga olib kelmaydi.

Qaror bilan 2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo’yicha “yo’l xaritasi” ham tasdiqlandi.


## NAVOIYDA HUDUDIY TARMOQLARARO SANOAT YARMARKASI

Navoiy shahridagi “Kimyogar” sport majmuasining yopiq zalida tog’-kon metalluriyasi, elekrotexnika, kimyo sanoati va qurilish materiallari sohalariga ixtisoslashgan ikki kunlik hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi o’tkazildi.

Ushbu yarmarkada respublikamizning viloyatlaridan tashrif buyurgan 200 dan ziyorat sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar o’zlarining 3,5 mingga yaqin mahsuloti namunalari, o’zlashtirilishi rejorashtirilgan import o’rnini bosuvchi tovarlar, sanoat kooperatsiyasi orqali mahalliylashtirishga taklif qilinayotgan mahsulot turlari hamda loyihalari bilan qatnashdi.

Mazkur yarmakada “O’zmetkombinat” AJ ham kombinatda ishlab chiqarilayotgan navli prokat mahsulotlari, sirlangan po’lat idishlar, issiqlikni o’tkazmaydigan materiallar, Yuqori omli koks, Ferrosilikomarganes MnS-17 kabi tayyor mahsulotlar va ko’plab materiallar va butlovchi buyumlar bilan ishtiroy etdi.

Yarmarkada sanoat mahsulotlari ko’rgazma-



lari, elektron kooperatsiya birjasi portal faoliyati, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish, kichik biznes sub’ektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb qilish, investitsion imkoniyatlar, tadbirdorlikni rivojlantirish hamda tarmoq va hududlarda sanoat salohiyatini oshirishga qaratilgan taqdimotlar, uchrashuvlar tashkil etildi.

Yarmarka tog’-kon metalluriyasi, kimyo sano-

ati, elektrotexnika, energetika va qurilish materiallari, shu bilan birga zargarlik buyumlari hamda hunarmandchilik sohalarida tarmoq hududiy korxonalar o’rtasida kooperatsiya aloqlarini yanada mustahkamlash bilan birga kichik biznes sub’ektlari uchun ham katta imkoniyatlar yaratib berishga xizmat qiladi.



## QUYOSH PANELLARI: TEJAMKOR ENERGIYA MANBASI

### ENERGIYA TAQCHILLIGI QOPLANADI

Bugungi kunda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta'minlash borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko'r-satish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, sohada ishlarni kompleks tashkil etish borasida muhim hujjat bo'ldi. Mazkur qaror bilan ijtimoiy soha ob'ektlari va iqtisodiyot tarmoqlarida, davlat idoralarida kichik quvvatlari qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurilmalarini o'rnatish rejasini tasdiqlanib, joylarda ishlar tashkil etildi.

Qarorda 2023-yilda umumiy quvvati 4 300 MVt bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishga tushirish orqali qo'shimcha 5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va buning natijasida 4,8 milliard metr kub tabiiy gazni iqtisod qilish belgilanmoqda. Ushbu maqsadlarga jami 15,4 milliard AQSH dollari miqdorida mablag'larni yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

### IMTIYOZLAR BERILADI

2023-yil 1-apreldan boshlab qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i, yer solig'i hamda yuridik shaxslar tomonidan umumiytarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foya solig'in to'lashdan ozod etilishi bo'yicha imtiyozlar berilmoqda. Imtiyozlardan yana biri 2023-yil 1-martdan boshlab yagona elektr energetika tizimiga ulanish uchun berilgan texnik shartlarda ko'rsatilgan quvvatdan yuqori bo'limgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurilmalarini elektr tarmoqlariga ularshda qo'shimcha texnik shart olish talab etilmasligidir.

Qarorda belgilangan muhim jihatlardan yana biri bu 2023-yil 1-apreldan boshlab respublika hududlarida aholi xonadonlariga kichik quvvatlari



quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish bo'yicha “Quyoshli xonodon” dasturi amalga oshirilishidir. 2023-yilda 37 ming aholi xonadonlarida kichik quvvatlari qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurilmalarini o'rnatish rejalashtirilmoqda.

Dastur doirasida jismoniy shaxslarga tegishli ob'ektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga davlat byudjetidan 1000 so'mdan subsidiya ajratilishi nazarda tutilgan.

### BIR QATOR LOYIHALAR AMALGA OSHIRILDI

Shu o'rinda yuqorida ta'kidlangan muhim vazifalar ijrosi yo'lida “O'zmetkombinat” AJda ham bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish sexining tayyor mahsulotlar ombori tom qismiga quvvati 10 kWt, Energetika tarmoqlarini ta'mirlash sexining tom qismiga esa quvvati 5 kWt elektr energiyasi ishlab chiqaradigan quyosh panellari o'rnatilib ishga

tushirildi. Hozirgi kunda Elektrda po'lat eritish sexi avtoturargohiga quvvati 900 kWt hamda Mexanika ta'mirlash sexi avtoturargohiga quvvati 600 kWt elektr energiyasi ishlab chiqarishga mo'ljallangan quyosh panellarini loyihalash, yetkazib berish, o'rnatish va ishga tushirish ustida ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, tarkibiy bo'linmalarning o'z ehtiyojlariga yarasha issiq suv bilan ta'minlash maqsadida quyosh suv isitgichlari (Geolekollektor) ham o'rnatilmoqda. Jumladan, Metall konstruksiyalar sexining tom qismiga 10 ta komplekt 2000 litrli, Elektr tarmoqlari va podstansiyalar sexining Transformatorlarga xizmat ko'r-satish uchastkasi tom qismiga 2 ta komplekt 400 litrli hamda Metallurgiya podstansiyasi tom qisimiga 1 ta komplekt 200 litrli va Mexanika sexining tom qisimiga 1 ta komplekt 200 litrli quyosh suv isitgichlari o'rnatilgan.

Muqobil energiya manbalarini joriy etish bo'yicha xorij tajribalari asosida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar elektr energiyasiga nisbatan tobora ortib borayotgan ehtiyojni qanoatlantirib, energiya taqchilligining oldini olishga xizmat qiladi.



## TOMA-TOMA KO'L BO'LUR...

### ENERGIYA TEJOVCHI LAMPA BIR YILDA 79 296 SO'M IQTISOD QILADI

“Yashil” energiyaga o'tish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash uchun zarur bo'lgan omillardan biri hisoblanadigan energiya samaradorligi avvalo o'zimizdan boshlanadi. Misol uchun, biz qanday lampalardan foydalanamiz?

O'zbekistonda 2016-yil 1-iyuldan quvvati 40 Vt.dan yuqori bo'lgan cho'g'lanma lampalarni erkin muomalaga chiqarish, 2017-yil 1-yanvardan esa ularni sotish taqiqlangan. Bu Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-oktabrdagi 299-sonli qarorida belgilab berilgan.

Xo'sh, energiyani tejash nima uchun kerak? Xususan, elektr energiyasi iste'molidan energiya samarasiz cho'g'lanma lampa va energiya tejamkor, zamonaviy LED lampasining ahamiyatini tahlil qilamiz.

Birgina energiya tejovchi svetodiod – LED lampasining qanchalar foydali ekanini bilasizmi?

Agar foydalanilayotgan 100 Vt quvvatli cho'g'lanma lampalarni 7 Vt quvvatli energiya tejovchi lampalarga almashtirilsa, sutka davomida 8 soat ishlaganda quyidagilar sarflanadi:

- 100 Vt quvvatli lampa bir kunda o'rtacha



8 soat ishlasa 800 Vt.soat, bir oyda esa 24 kilovatt-soat elektr energiyasi sarflaydi.

- 7 Vt quvvatli energiya tejovchi lampa esa, bir kunda 8 soat ishlasa 56 Vt, bir oyda (30 kun) 1,6 kilovatt-soat elektr energiyasi sarflaydi. Demak, bir dona energiya tejovchi lampa bir oyda 100 Vt quvvatli cho'g'lanma lampalarga nisbatan 22.4 kilovatt-soat elektr energiyasini iqtisod qiladi.

Bu esa, elektr energiyasining amaldagi 295 so'm tarifi bo'yicha hisoblaganda, bir dona energiya

tejovchi lampa bir oyda 6 608 so'm, bir yilda esa 79 296 so'm iqtisod qiladi. Agar uyingizda 10 dona LED lampasidan foydalansangiz bir yilda 951 552 ming so'mingiz tejaladi.

Agar ushbu holatni bir viloyat yoki butun mamlakat misolida tahlil qiladigan bo'lsak, iqtisod qilinishi mumkin bo'lgan elektr energiyasi miqdori qanchalik katta bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas.

E'tibor bergen bo'lsangiz, birgina energiya tejovchi lampadan foydalishimiz natijasida ham o'zimizning hamyonimizga, ham butun energotizmga, bundan tashqari, ana shu iqtisod qilgan energiyani qaysidir xonadonga yetib borishi uchun ham xizmat qilgan bo'lamiz.

Ma'lumot uchun: 100 Vt quvvatli energiya samarasiz lampa beradigan nur o'rnini undan 15 marotaba energiya tejamkor bo'lgan 7 Vt quvvatli LED lampasi bosa oladi.

Shu o'rinda o'zbek xalq maqolini eslashimiz kifoya: toma-toma ko'l bo'lur... Xalqimizda yana shunday dono ibora borki, dengiz sohilida tahorat olsang ham suvni keragidan ortiq ishlatma, deyiladi unda.

## VAZIFALAR BAJARILMOQDA

Zoldir prokat sexining jamoasi berilgan vazifalarni sidqidildan bajarib kelmoqda.

Zoldir prokat sexida joriy yilning o'tgan 8 oy mobaynida jami 161 019 tonna navli prokat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Avgust oyida esa mazkur sexda diametri 40, 65, 100 va 120 mm. bo'lgan po'lat zoldirlar hamda 16 mm.li kvadrat, diametri 65 mm. bo'lgan aylana profilli navli

prokat mahsulotlaridan jami 21 100 tonna ishlab chiqarish rejada belgilangan edi. Sexning ahil jamoasi tomonidan esa 24 500 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, oylik reja 116,1 foizga ado etildi. Shuningdek, o'tgan oyda ishlab chiqarilgan po'lat zoldirlar, mayda va yirik navli profil mahsulotlaridan jami 21 476,850 tonnasi realizatsiya qilindi.



## MAHSULOTLARIMIZGA TALAB YUQORI

Kombinatimizning Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish sexi tomonidan ishlab chiqarilayotgan turli xildagi, rang-barang ko'rinishga ega, sifatli sirlangan po'lat idishlarga bo'lgan talab ortib bormoqda.



Iste'molchilarga sirlangan po'lat idishlarni o'z vaqtida yetkazib berish uchun XIMICH sexi ishchi xodimlari astoydil mehnat qilmoqdalar.

Joriy yilning avgust oyida sexda rejada belgilangan 270 tonna o'rniga 282 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, oylik reja 103,7 foizga bajarildi. Aynan shu oyda 277,66 tonna mahsulot realizatsiya qilindi, shundan 10,3 tonnasi Turkmanistonga eksport qilingan.

Hozirgi kunda Turkmaniston, Bolgariya va Germaniya davlatlari tomonidan berilgan buyurtmalar tayyorlanmoqda.

## KATTA QIZIQISH BILDIRILDI

Moskva shahrida uy-ro'zg'or buyumlarini taqdim etuvchi HouseHold Expo maxsus ko'rgazma bo'lib o'tdi. Bu xalqaro sanoat ko'rgazmasi Rossiyadagi nooziq-ovqat mahsulotlarini to'liq namoyish etadigan nufuzli ko'rgazma hisoblanadi.

Ushbu ko'rgazmada kombinatimiz o'zining sirlangan idishlari bilan qatnashdi. Mazkur ko'rgazmada ishtirok etishdan maqsad kombinatimizda ishlab chiqarilayotgan sirlangan po'lat idishlar eksporti geografiyasini kengaytirish.

Ko'rgazmada mahsulotlarimizga tadbirkorlar tarafidan katta qiziqish bildirildi.



## NATIJALAR KO'NGILDAGIDEK

Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexiga joriy yilning yanvar-avgust oylarida ferrosilikomarganes MnS-17 markali mahsulotidan ishlab chiqarish rejasiga 6 750 tonna miqdorida belgilangan edi. O'tgan 8 oy mobaynida sexda 7 411 tonna ferrosilikomarganes MnS-17 markali mahsuloti ishlab chiqarildi hamda reja 109,8 foizga bajarildi.

O'tgan davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotdan 7 048 tonnasi Elektrda po'lat eritish sexiga, 60 tonnasi "LI DA Metall" qo'shma korxonasiga jo'natildi.

Sexning Yuqori omli koks ishlab chiqarish uchastkasida mahsulot tannarixini yanada kamaytirish maqsadida belgilangan ishchi-dasturga muvofiq ishlar olib borilmoxda.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida uchastkada jami 6569 tonna mahsulot ishlab chiqarilgan. Ishlab chiqarilgan mahsulot Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexiga uzluksiz ravishda jo'natilib kelinyapti.

"O'zmetkombinat" AJ Yoshlar yetakchilarini ken-gashi tomonidan kombinatda mehnat qilayotgan 30 yoshdan oshmagan yoshlar o'rtasida har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Eng faol yosh elektromontyor" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

## "ENG FAOL YOSH ELEKTROMONTYOR"

Ushbu tanlovdan kombinatimizning bir qator tarkibiy bo'linmalaridan 20 nafardan ziyod elektromontyor kasbiда mehnat qilayotgan yoshlar ishtirok etishdi.

Ko'rik-tanlov ishtirokchilari elektromontyorlik kasbining nazariy bilimlari bo'yicha savol-javob qilindi. Shuningdek, ularning chizma namunasi bilan ishlashdagi bilimlari sinovdan o'tkazilib, amaliy bilimlari baholandi.

Ko'rik-tanloving yakuniy natijalarga ko'ra 1-o'rinni Navli prokat sexidan Abdujalol Meliyev egalladi. 2-o'rinni Navli prokat sexidan Azamat Abduvahobov, 3-o'rinni kombinat markaziy laboratoriyasidan Javohir Sotiboldiyevar qo'lga kiritdi.

G'olib va sovrindorlar kombinat rahbariyati tomonidan pul mukofotlari bilan taqdirlanishi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 208-moddasiga binoan, dam olish kuni ishlanmaydigan bayram kuniga to'g'ri kelgan taqdirda, dam olish kuni bayramdan keyingi ish kuniga ko'chiriladi.

## DUSHANBA KUNI DAM OLAMIZ

Ilgari bunaqa qoida yo'q edi, masalan, Navro'z bayrami yakshanba kuniga to'g'ri kelib qolsa, unda 2 ta dam olish kuni bittada o'tib ketardi. Endi bunday bo'lmaydi va dam olish kuni bayramga to'g'ri kelsa, unda ko'chiriladi.

Umumxalq bayramlari 1-yanvar - Yangi yil, 8-mart - Xotin-qizlar kuni, 21-mart - Navro'z bayrami, 9-may - Xotira va qadrlash kuni, 1-sentabr - Mustaqillik kuni, 1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni, 8-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, Ro'za hayit (Iyd al-Fitr) diniy bayramining birinchi kuni, Qurbon hayit (Iyd al-Adha) diniy bayramining birinchi kuni dam olish kuni ishlanmaydigan bayram kuniga to'g'ri kelgan taqdirda, dam olish kuni bayramdan keyingi ish kuniga ko'chiriladi.

O'zbekistondagi birinchi ana shunday amaliyat 1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuniga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni ushbu bayram yakshanba kuniga to'g'ri kelgani uchun, 2-oktabr - dushanba kuni ham dam olish kuni sifatida belgilandi.

## HAMKORLIK YO'LGA QO'YILMOQDA

"O'zmetkombinat" AJga "Sredazsvetmetenergo" AJ va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining mutaxassislarini va ilmiy xodimlari tashrif buyurishdi. Tashrif doirasida ular Bosh energetik xizmati hamda Innovatsion rivojlanish boshqarmasi xodimlari bilan "Ikkilamchi muqobil energiya resurslaridan elektr energiyasini ishlab chiqarishda foydalanish" innovatsion mavzusida hamkorlik qilish bo'yicha o'zaro fikr almashishdi.

Mehmonlar Elektrda po'lat eritish, Navli prokat, Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexlariga hamda Koks ishlab chiqarish uchastkasiga borishdi. Mutaxassislar mazkur sexlardan ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqayotgan gazzardan muqobil elektr energiyasini olish hamda ishlab chiqarishga to'g'ri yo'naltirish bo'yicha kelgusida o'zlarining texnik-tijorat takliflarini berishlariga kelishib olindi.

## YANGI USKUNA OLIB KELINDI



Metall konstruksiyalar sexiga Xitoy davlatidan "Drob bilan tozalovchi mashina" olib kelindi. Ushbu mashinani montaj qilish ishlari amalga oshiriladi va ishga tushiriladi. Uskuna yordamida har xil turdag'i metallar va po'lat listlar yuzasi tozalanadi.

Bu mashinada tozalangan metall yuzasi rang bilan bo'yaladi va natijada berilgan rang uzoq yillarda mobaynida o'z sifatini yo'qotmaydi.

## QAHRAMON USTOZNING QAHRAMON SHOGIRDI

**Bekobodlik metallurglar yana 5 oydan so’ng o’zbek po’latining 80 yillik to’yini nishonlashadi. Bu davr o’zbek metallurglarining kuch-qudrati, mustaqilligiga ishonchi va qa’tiyati ramzi bo’lib tarix sahfalariga naqshlandi.**

### PO’LATDEK TOBLANDI

O’tgan 80 yilda besh kishi Mehnat Qahramonidek yuksak unvonga sazovor bo’lgan. Ulardan biri Abdurahmon Abdurazzoqov (1952-2007) siyosisi ham beixtiyor ko’z oldimizga keladi. U qisqa umr ko’rdi, ammo o’ziga xos o’chmas iz qoldirishga ulgurdi. O’zidan ulkan ibrat maktabi qoldirdi. Mehnati, yangidan-yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga dadil joriy etishdagi xatti-harakatlari beqiyos bo’ldi. Yosh ishchilarining oqilona faoliyat ko’rsatishlariga, ularning jismonan baquvvat, ma’naviyati yuksak bo’lishida u ko’rsatgan ibratning ahamiyati katta. Ishchining shonli yo’li debochasi 1969-yil bahor fasilda bo’lgan edi. O’sha vaqtgagi zavod direktori I.Muhammedov qabulxonasiga qadami chaqmoq o’smir yigitcha ariza ko’tarib kirdi. Vazmin tabiatli korxona rahbari yigitchaningsalomiga alik olib, uning asl maqsadi va avlod-ajdodi bilan obdon qiziqlidi. Keyin huzuriga o’zbek po’latining afsonalaridan biri Mehnat Qahramoni Asad Ergashevni chaqirtirdi. Abdurahmonni unga shogirdlikka topshirar ekan: Po’latdek toblang! – dedi qat’iy ohangda.

Tajribali korxona rahbari ustoz va shogirdlik an’anasiga jiddiy qarardi. Ustoz shogirdga ish o’rgatishi bilan birga uning yurish-turishini ham nazorat qilib borishini qattiq talab qilardi. Ustozning himmati va mehnati shogirdni yuksak pog’onalarga – mavqega erishtirganini hayotida ko’p bora kuzatgan mohir boshqaruvchi edi. Buni yaxshi bilgan Asad Ergashev uning so’zlarini bosh irg’ab ma’qulladi.

O’sha paytlarda Marten sexe boshlig’i Kostyanoy bo’lib, Asad Ergashev katta usta edi. U Abdurahmonni boshlab kelgan jamoada P. Zaysev, A. Toshpo’latov kabi dongdor ishchilar faoliyat ko’rsatardi, eritilgan po’lat salmog’i tinimsiz o’sib borardi.

Abdurahmon Abdurazzoqov mehnat faoliyatining dastabki pillapoyasiga dadil qadam tashlagan edi. Qozondan toshib sachragan olov yolkunlaridan zarra bo’lsada cho’chimadi. Vahimali tuyuladigan po’lat eritish jarayoni uning yosh yujudini junjuktirmadi. Aksincha, olov bilan basma-bas o’ynagandek po’lat eritish va quyish sirlarini tezkorlik bilan o’zlashtirishga kirishdi.

### KOSMIK MARKAZ OPERATORI

Oradan bir yil o’tib-o’tmay yosh ishchi harbiy xizmatga chaqirildi. U ikki yil davomida Qozog’istonning Qizilo’rda viloyatidagi “Boyqo’ng’ir” kosmodromida xizmat burchini

o’tadi. U harbiy qismida kosmik kemalarni radio va telemetrik tashhiplash markazida operator vazifasini bajardi. Bizlar Bekobod dan 16 nafar askar haftada bir bora to’planib osh damlar edik. O’zaro qadrondonligimiz bor edi. Tinimsiz harbiy mashqlar uni chiniqtirdi: u katta serjant darajasiga erishdi. Sport musobaqalarining doimiy g’olibiga aylandi. Biz xizmatdoshlari haqli ravishda u bilan faxrlanardik.



### ISTE'DODLI SHOGIRD

A. Abdurazzoqov harbiy xizmatni o’tab qaytganida o’lkamizda bahor hukm surardi. Azamat martenchilar uni yana otashin bag’rilariga olishdi. Ayniqa, harbiy xizmatdan chiniqib qaytgan Abdurahmonning zuvalasi pishib, kuchga to’lganini ustoz Asad Ergashev chuqur his qildi. Iste’dodli ustoz saboti ham fidoiy shogirdda asta-sekin shakllana boshladidi. Shogird ham Mehnat Qahramoniga o’xshashlikka sidqidildan intilardi. Darhaqiqat yoshlik orzusi amalga oshayotgani, ustozlardan ko’p narsalarni o’zlashtirayotgani uning uchun katta baxt edi. U ish tanlamasdi. Marten sexe kanavasidami, uzlusiz po’lat quyish qurilmasidami, pechdagijarayonlardami barcha topshirilarni bajarish uchun kuch-g’ayratini ham, sog’lig’ini ham sira ayamasdan ishlardi. Uni 1976-yil Rossiyaning Lepesk metallurgiya zavodiga mutaxassislik saviyasini oshirish uchun yuborishdi. Lepesklik mohir hamkasblaridan po’lat quyish va eritishning zamonaliviy, yangi yuksak texnologiyalarini puxta egalladi.

Yakka tartibda olib borilgan mahorat darslari, zavod sexlarida o’tkazilgan amaliy mashg’ulotlar o’z samarasini berishi shubhasiz edi.

### MEHNATI BILAN E’TIBOR QOZONDI

Oradan ikki yil o’tib, 1978-yil 17-avgustda EPESda birinchi po’lat quyish jarayonida Abdurahmon ham bevosita qatnashish baxtiga erishdi. Asl ishchilarga xos bo’lgan kamtarlik, jasorat, atrofdagilarga



ham topdi. Shuningdek, elektrda po’lat eritishning zamonaliviy texnologiyasini ilk daf'a rekonstruksiya qilish amalga oshirildi. Yangi texnologik jarayon avtomatik tizimda boshqariladigan bo’ldi. EPESdagi yangi elektr pechini barqaror ishlashda erishgan yutuqlari bo’lajak qahramonni jamoa o’rtasida katta hurmat-e’tiborga sazovor qildi.

### SHONLI UMRNING ENG YORQIN SAHIFASI

Ishlab chiqarishdagi yuqori ko’rsatkichlar, jamoadagi tashabbuskorligi tufayli Mustaqillikning 12 yilligi arafasida kombinat ilg’orlari hukumatimizning orden va medallari bilan taqdirlandi. Jumladan, EPES operatori Abdurahmon Abdurazzoqov Vatanimizning eng yuksak mukofoti – “O’zbekiston Qahramoni” unvoniga sazovor bo’ldi. Bu shonli umr yo’lining eng yorqin sahfalari edi.

Uning “Oltin yulduz” nishonini muhtaram yurtboshimizning shaxsan o’z qo’llaridan olganini oynai jahon orqali iftixon bilan kuzatdik. Ertasiga xizmatdoshlar qahramonni yuksak unvon bilan qutlash maqsadida shahrimizning 64-dahasidagi uning uyiga yig’ildik. Ko’p qavvatlari bino hovlisi gulzor, yon atrofi mevali bog’. Uzum ishkomi shig’il pishgan yoqutday tovlangan uzumlar bilan gavjum. Ana mirishkorlik, deyman ichimda. Hovliga qalin suv sepilgan, issiq bo’lishiga qaramay yuzga salqin shabada uriladi. So’rilarda muborakbod uchun kelgan mehmonlar o’tirishibdi. Do’stimizning mehnatda topgan baxti barchani behad xushnud etgan edi.

### XOTIRASI ABADIY QALBLARIMIZDA

A. Abdurazzoqov bir necha yillar Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi deputati sifatida hamshaharlari farovonligini ta’minlash yo’lida samarali mehnat qildi. Uning fidoyiligi va insoniy fazilatlarini to’g’risida qancha yozsak ham oz. Afsuski, kasallik pand berdi. Avval undagi po’lat iroda dardga yon bosmadi. Oradan to’rt yil o’tib, 2007-yil bahorida sog’lig’i bir muncha yomonlashdi. Qiyinchiliklarga pisand qilmay o’rgangan fidoiy inson ish faoliyatini va jamoatchilik yuklagan vazifalarni uzlusiz davom etti-raverdi. Oqibat unga anche qim-matga tushdi. U endi oramizda yo’q. Ammo uning yorqin xotirasi abadiy qalblarimizda. O’zbekiston og’ir sanoatining mashhur vakili Abdurahmon Abdurazzoqovning o’chmas nomi tarix sahfalariga abadiy muhrlangan. Uning hayoti bahor yanglig’ qisqa bo’lsa ham, ulkan mehnati bilan sayqallangan shonli umr sifatida boqiyidir. Avlodlar uning nomini hurmat va faxr bilan tilga olishadi.

**Abdusalom ABDULLA.**

## DARAXTLAR HARORATNI PASAYTIRISHGA XIZMAT QILADI

## HAVONI TOZALAB, ISSIQLIKNI PASAYTIRADI

"YASHIL MAKON" DASTURI DOIRASIDA "O'ZMETKOMBINAT" AJDA HAM KENG KO'LAMLI ISHLAR OLIB BORILMOQDA. KOMBINAT HUDUDLARINI OBODONLASHTIRISHGA, UNI YASHIL MASKANGA AYLANTIRISHGA KATTA E'TIBOR QARATILMOQDA. AYNIQSA, DARAXTLARNI JAZIRAMA ISSIQLIDA O'Z VAQTIDA SUG'ORISH, ULARGA SHAKL BERIB, PARVARISHLASHGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILDI.

## CHANGLARDAN TOZALAYDI

Zero jazirama issiq kunlari daraxtlar haroratni pasaytirishga, chang-g'uborlarni kamaytirishga xizmat qilishi hozirgi davrga kelib juda dolzarb masalaga aylanganligini ko'plar yaxshi anglaydi.

Keyingi paytda shamol bilan kelayotgan havodagi chang hammanizni ham tashvishga solmoqda. Bu changlar hatto xonadonlarimizga ham kirib bordi. Joriy yilning 11-sentabr kuni mamlakatimizning ayrim joylarida zararli chang bo'roni kuzatildi. Chang bo'roni eng kuchaygan vaqtida Toshkent shahri havo ifloslanishi bo'yicha xalqaro reytingda 1-o'ringa chiqdi. Afsuski, bu holat birinchisi emas.

Bugungi kunda havodagi changlarga qarshi kurashishning eng samarali va sinalgan vositasi bu daraxtlarni ko'plab ekishdir. Yurtimizda ekiladigan keng bargli daraxtlar havodagi changlarni, turli gazzlarni 65-85 foizga ushlab qoladi.

Hammamiz biladigan oddiy terak ifloslangan havoni boshqa daraxtlarga nisbatan yaxshiroq tozalaydi. Bundan tashqari, u juda tez o'sadi va parvarishni ham ko'p talab etmaydi. Terak changlarni o'zida ushlab qoladi. Asosiysi, boshqa daraxtlarga qaraganda yetti marotaba ko'proq kislordan chiqaradi.

Boshqa daraxtlardan ham havoni tozalashda samarali foydalanish mumkin. Tadqiqotlar fotosintez

jarayonida bir gektar maydonagi daraxtzorlar ajratadigan kislordan 200 kishining bemalol nafas olishi uchun yetarli bo'lishini ko'rsatgan. Shu bilan birga, bu jarayonda o'simliklar har soatda 8 kg.gacha uglegislota gazini yutadi. Boshqacha qilib aytganda, havoning optimal miqdorda saqlanib turishi uchun kishi boshiga 50 kv.metr yashil maydon, ya'ni daraxtzor bo'lishi lozim.

## ISSIQLIK TAFTINI KAMAYTIRADI

Daraxtlar issiqlik taftini kamaytirishda ham muhim o'rinn tutadi. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra daraxtlar, boshqa o'simliklarning barglari va shohlari yoz oylarida quyoshdan kelayotgan issiqlik quv-vatinining faqat 10-30 foizini pastga o'tkazar ekan. Natijada yer ustida harorat mo'tadil bo'lar ekan.

Bu yilgi yoz deyarli butun dunyoda issiq bo'ldi. Ayniqsa, iyul rekord darajadagi eng issiq oy bo'ldi. Juhon meteorologiya tashkilotining 27-iyul, payshanba kuni ma'lum qilishcha, iyul oyning dastlabki uch haftasida o'rtacha global harorat ko'plab mintaqalarda jazirama to'lqinlar tufayli o'tgan yillardagi haroratdan sezilarli darajada oshib ketgan.

Abu Ali ibn Sino. Daraxtlar havodagi zararli karbonat angidridni yutib, zamonamizning o'zi taqoza etmoqda.

o'rninga kislordan ishlab chiqaradi va bizning nafas olishimizga yordam beradi. Ular issiqliqda salqinlik beradi, atrof-muhitni shovqinlardan himoya qiladi.

## TAJRIBA NIMANI KO'RSATDI?

Daraxtlar issiqlik ta'sirini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuni amalda sinab ko'rish uchun kombinat hududida tajriba o'tkazdik. Elektrda po'lat eritish sexining avtobekatining quyoshli joyida tushda mashina yonida issiqlik selsiy bo'yicha 41 daraja issiq bo'lganda, bekatning ro'parasidagi daraxtzorlar soyasida issiqlik harorati 37 darajani - 4 darajaga pastni ko'rsatmoqda. Xuddi shu vaqtida kombinat ijroiya apparatidan "Xos yoz" kanaliga chiqishdagi suvgaga yaqin qalin daraxtzorlar orasida soyada harorat 35 daraja issiq ekan.

Dunyo bo'yicha hozirgi havo harorati o'tgan asrdagidan issiqliq va kelgusida bundanda yuqori harorat kuzatilishi kutilmoqda. Bunday jazirama issiqning taftini kamaytirishda esa yuqorida o'tkazgan tajribamiz ko'rsatganidek daraxtlar, o'simliklar dunyosining o'rni beqiyos ekan.

Demak, havo musafifoligini saqlash, issiqlik ta'sirini kamaytirish uchun mamlakatimizda, jumladan kombinatimizda ham olib borilayotgan "Yashil makon" dasturi bo'yicha qilinayotgan ishlarga yanada katta e'tibor qaratilishini zamona mizning o'zi taqoza etmoqda.

Diyor ZULFIQOROV.



## EKOLOGIK HOLAT YAXSHILANADI

Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, qulay ekologik holatni barqaror saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish samaradorligini ta'minlash bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki sanoat chiqindilari ekologik omillarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada atrof-muhit va suv tozaligi, o'simliklar rivojlanishi, tirik mavjudodlarning faolligi buziladi. Buning oldini olish uchun korxonalar ishlab chiqarish chiqindilarni tozalash va ularni qayta ishlashga alohida e'tibor qaratishadi.

Kombinatimizda, ayniqsa, po'lat eritish jarayonida hosil bo'lgan shlak qoldiqlari uyumlarini tozalashda keng miqyosli ishlarni olib borildi. 2004-yilda tashkil etilgan Shlak qoldiqlarni qayta ishlash sexi tomonidan o'tgan davrda millionlab tonna shlak qoldiqlariidan tozalandi.

Bugungi kunda Texnogen chiqindilarni qayta ishlash deb nomlangan bu sex jamoasi samarali mehnat qilib kelmoqda. Sex ishchi-xodimlari



belgilangan vazifalarni o'z vaqtida ado etishyapti.

Joriy yilning o'tgan 8 oyi mobaynida sex tomonidan Xitoyning "Shengli Steel" va "Shunda Steel" MCHJ ishlab chiqaruvchi korxonalariga jami 552 591 tonna shlak uyumlari ortib jo'natildi.

Texnogen chiqindilarni qayta ishlash sexining shlakni maydalash uchastkasi yanvar-avgust oylarida shlakni qayta ishlab, undan ajratilgan 2 133 tonna metall parchalarini Elektrda po'lat eritish sexiga yetkazib bergen.

Shu bilan bir qatorda o'tgan davr mobaynida Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexidan chiqayotgan marganes shlak qoldiqlari ham qayta ishlanib, jami 3 120 tonna 10-90 fraksiyada tayyor mahsulot holida Elektrda po'lat eritish sexiga jo'natildi.



Sanoat chiqindilarni qayta ishlashni yanada samarali yo'lga qo'yish uchun bu sexda bir qator choralar belgilangan. Po'lat eritishda hosil bo'lgan issiq shlakni qayta ishlash loyihasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlar bilan ish olib borilmoqda. Bu loyihha amalga oshgandan so'ng 100 foiz shlak qayta ishlanadi. Shuningdek, shlakdan po'lat ajratib olish bir necha baravarga oshishi kutilmoqda. Qayta ishlangan shlak zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqarishda, yo'l qurilishida, cement sanoatida va boshqa joylarda ishlatiladi. Eng muhim jihatlaridan biri kombinatning ekologik holati yaxshilanadi.

Sheroz SHUKURALIYEV.

## KORRUPSIYA

## IJTIMOY SO'ROV: 82 FOIZ QATNASHCHILAR KORRUPSIYAGA DUCH KELISHGAN

Jamiyatda shunday illatlar borki, u ma'lum bir sohaga emas, bo'lib ketgan, xijolatdan shifokorning bora-bora yuzsiz poraxo'rlikdir. Aynan shu illat sababli ko'plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma'lum.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi jahoning har bir mamlakatida kurash olib boriladi. Davlat va xalq hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashgan mamlakatlarda yaxshi natijalarga erishilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishni har birimiz o'zimizdan, yon-atrofimiz, ishxonalimizdan boshlashimiz kerak.

O'zaro suhbatlarda qaysidir soha vakillarini poraxo'rlikda ayblaymiz. Ammo bu illatning jamiyatda ildiz otib, rivojlanishiga avvalo o'zimiz sababchi ekanimizni o'ylamaymiz.

Oddiygina bir idoraga ishimiz tushsa ham eshikdan kirmasdan tanish qidiramiz. Shifokorning cho'ntagiga o'zimiz pul tiqamiz, hali yana kelishim bor, keyingi safar navbatsiz qabul qiladi deb o'ylaymiz. O'g'limizning bog'cha opasi, qizimizning muallimiga o'zimiz sovg'a beramiz. Shunday qilsak, farzandlarimizga ko'proq e'tibor qaratadi deb hisoblaymiz. Yo'l harakati qoidasini buzganimizda to'xtatgan nozirning qoshiga qo'limizni ko'ksimizga qo'yib, o'zimiz tushib boramiz. Haydovchilik guvohnomasidan ayrilishning narxi qancha ekanini bilganimiz uchun ham shunday qilamiz. Gaz, svet, suvdanman deb kelgan nazoratchini ham o'zimiz yo'ldan uramiz. Ishga, o'qishga kirishdagi holatlarda ham o'zimiz qonunlarni buzishga harakat qilamiz.

"Ularning hammasi qo'lga qaraydi, pora bermasangiz ishingiz bitmaydi", - deyishingiz mumkin. Lekin ularni poraxo'rlikka biz o'rgatmadikmi? Cho'ntagiga pul tiqqanimizda qo'rquvdan ko'zlar katta-katta

balki butun jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladi. Davlatni yuzlari qizargan yoshgina ich-ichidan yemiradigan ana shunday illat - korrupsiya va shifokorning bora-bora yuzsiz poraxo'rlikdir. Aynan shu illat sababli ko'plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma'lum.

AJ rasmiy Telegram kanalida o'tkazilgan anonim so'rovnomada kombinat ishchi-xodimlarining korrupsiya bo'yicha fikrlari o'rganildi.

So'rovnama ishtirokchilarining mansabdar shaxslar tomonidan o'z vazifalarini insofsiz bajarilishiga 51 foizi ba'zan, 31 foizi doimo duch kelganligini bildirishgan. Respondentlarning 63 foizi pora bermaganligi, 37 foizi esa pora berishga majbur bo'lganligini tan olishgan.

Sizning mansabdar shaxsga pora berishingizga nima sabab bo'ldi? degan savolga 38 foiz so'rovnama ishtirokchisi muammoni qonuniy yo'l hal qilish uchun vaqt yoki imkoniyatning yo'qligidan, 23 foizi hamma pora beradi, sababi mansabdar shaxsning nazariga tushish yoki muammolarimni tezroq hal qilish uchun, 39 foizi amaldorning muammolarimni hal qilib berishini

kechiktirishidan charchaganidan deb javob berdi.

Qiziq ma'lumot: qatnashchilarning 52 foizi esa mansabdar shaxsga mukofot berilishini pora - korrupsiya deb hisoblamaydi. Ishtirokchilarining 80 foizi korrupsiya hayotlariga ta'sir qilishini bildirishgan.

Mazkur tadbir natijalaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, qatnashchilarining aksariyati korrupsiyaga bog'liq holatlarga duch kelishgan. Biroq ularning yarmidan ziyodi mansabdorlarga pul berib ishni bitirishni korrupsiya deb hisoblamas ekan. Bunday fikr bilan korrupsiyani yengib bo'lmaydi. Shunday ekan ishchi-xodimlar o'rtasida huquqiy ongni oshirish borasida yana ancha ishlar qilinishi kerak.

Har birimiz shuni yodda tutishimiz zarurki, korrupsiya nafaqat davlatlar, balki muqaddas islam dini tomonidan ham qattiq qoralanadi. Pora berish va olish - Islomda katta gunoh. Islom dini davlat mulkini noqonuniy o'zlashtirish va xizmat vazifasini suiiste'mol qilishning barcha turlarini qattiq qoralaydi. Islom qonunlariga ko'ra, oddiy odamlar sodir qiladigan o'g'rilikka o'ta og'ir jazo tayin qilinadi. Bu qilmishning amaldor tomonidan sodir etilishining jazosi esa undan ham qattiq bo'ladi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga haqida xabar bergan shaxslarga pul mukofotlari beriladi. Islom dinida esa korrupsiya haqida bilib turib kerakli joylarga xabar bermaslik ham gunoh.

Jamiyat hamda davlat hayotining barcha jabhalarining rivojlanishiga, e'tiqodimizga salbiy ta'sirini yetkazadigan korrupsiyaga qarshi kurashishda, keng jamoatchilikda o'zini chetga olmasligi shart. Xalqimiz, jumladan kombinatimiz ishchi-xodimlari ham bahamjihatlikda korrupsiyaga qarshi kurashsa, albatta ijobiy natijalarga erishamiz.

Diyor ZULFIQOROV.



**QILMISH-QIDIRMISH\* QILMISH-QIDIRMISH\* QILMISH-QIDIRMISH\* QILMISH-QIDIRMISH\* QILMISH-QIDIRMISH\* QILMISH-QIDIRMISH\***

## HECH QANDAY SABAB JINOYATNI OQLAMAYDI

Hayotiy tajribalardan ma'lumki, jinoyat sodir etuvchilarning aksariyati hech qaerda ishlamaydigan va o'qimaydigan, ya'ni biror-bir foydali mashg'ulot bilan band bo'lмаган shaxslar hisoblanishadi. Ayniqsa, bu toifa kimsalar o'rtasida talonchilik, bezorilik, bosqinchilik, o'g'rilik jinoyatlari va mulkka qarshi jinoyatlari ko'proq kuzatiladi. Ya'ni moddiy ehtiyojni qondirish, boshqacha aytganda, oilaning iqtisodiy jihatdan nochorligi yoki to'qlikka sho'xlik qilishning ustunligi jinoyat omili bo'lib xizmat qiladi.

Ishlaydiganlar orasida esa tash-machilik qilish, korrupsiyaga aralashish holatlari ko'proq uchraydi. Tashmachilik qilayotganlar odatta: "Ro'zg'orga yetmagandan keyin, lozim bo'lsa, o'g'rilik ham qilamiz. ... oylikdan sarflab, uydan ishxonaga qatnash, tushlik qilish, bola-chaqa boqishu kiyintirish uchun pul yetmasa nima qilaylik?" deb o'z qilmishlariga sabab topishadi.

"Yog'li" joyda ishlovchi tamagirlar esa qo'sha-qo'sha uy, mashinalari bo'lsada xalq pulini botil yo'llar bilan yeyishaveradi. Toki ular sudning qora kursisiga o'tirmaganicha pushaymonlik haqida o'ylab ham ko'rmay poraxo'rlikni davom ettiraverishadi. Korrupsionerlar:

"O'zimga hamma narsa yetsada, hozir imkoniyatim borligida farzandlarni ham ta'minlab qo'yish kerakda. Bizdan keyin ular qiyonalishmasin" deb qilayotgan jinoyatlari uchun o'zlarini oqlashadi.

Shunga o'xshash misollarni yana keltirish mumkin. Biroq hech bir sabab tashmachi-yu poraxo'r va boshqa jinoyatchilarini oqlamaydi. Avvalombor bunday insonlar yoshlikdan to'g'ri tarbiya olishmagan. Ular shaxsiy manfaati uchun hech nimadan tap tortmaydigan odamlar bo'lib yetishgan. Bundaylar albatta yomon insonlardir. O'zgalarning mulkini talon-taroj qiladigan, xalq va davlat taraqqiyotiga xalaqit qiladiganlar albatta qonun oldida javob berishadi.



"O'zmetkombinat" AJda ham bunday ishchi-xodimlar uchrab turadi. So'nggi paytlarda kombinat mulkini mayda tashmachilik qilish bo'yicha bir qator ishlarni ko'rib chiqdik. Odatta bunday huquqbazarlar sud majlislarida qilgan ishidan pushaymon bo'lib, iqtisodiy ahvoli og'irligini ro'kach qilishadi.

Joriy yilning 18-iyul kuni ochiq sud majlisida kombinatda ishlaydigan Shodi O'tbosarovning (Ism-familialiyan o'zgartirilgan) ma'muriy ishini ko'rib chiqdik.

U 2023-yil 20-iyun kuni umu-miy qiymati 55 485 so'mlik 6 kilogramm rangli metall parchalarini "O'zmetkombinat" Ajdan olib chiqmoqchi bo'lgan. O'yagan rejasiga asosan rangli metall parchalarini yashirin

ravishda kombinatning 5-nazorat o'tish punktidan olib o'tayotganida shu joyda xizmat olib borayotgan xodimlar tomonidan ushlangan.

Sud majlisida huquqbazar o'z aybiga to'liq iqror bo'lди. Iqtisodiy ahvoli og'irligidan bu ishni qilganligini, o'ziga tegishli xulosa chiqarib olganligini, pushaymon ekanligini bildirdi.

Bu huquqbazar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topildi. Sud qarori bilan unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida - 330 000 so'm jarima jazosi q'llanildi.

**Farhod ZOKIROV,  
Jinoyat ishlari bo'yicha  
Bekobod shahar sudi sud'yasi.**

## MANSABDORLARGA TA'QIB UCHUN JAZO BERILADIMI?

Agar mening tanqidiy fikrlarim uchun mansabdar shaxslar ta'qib etishsa ularga qarshi qanday choralar ko'rildi?

**B. Sattorov.**

Bu holat fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar qatoriga kiradi.

Jismoniy shaxsni, uning vakilini, ularning oila a'zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a'zolarini ular davlat organiga, davlat muassasasiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikri va murojaatidagi tanqid uchun, xuddi shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun mansabdar shaxs tomonidan ta'qib etish taqilanaadi. Agar shunday holatlar ro'y bersa mansabdar



shaxsga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Fuqarolarning teng huquqligini buzhish" deb nomlangan 141-moddasiga asosan chora ko'rildi.

Unga ko'ra jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy

kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzhish yoki cheklash yoxud fuqarolarga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazoladidi.

O'sha harakatlardan zo'rlik ishlatib sodir etilgan bo'lса, – uch yuz soatdan uch yuz oltmis soatga cha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazoladidi.



### ZARAR KIMLARGA TO'LADIMI?

Ishchi-xodim mehnat jarohatiga bog'liq holda vafot etgan taqdirda ish beruvchi zararni kimga to'laydi?

**A. Toshpo'latov.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to'lash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida bu savolga to'liq javob berilgan. Bu qaror asosida xodim mehnat jarohatiga bog'liq holda vafot etgan taqdirda, ish beruvchi marhumning qaramog'ida bo'lgan mehnatga layoqatsiz, shuningdek o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslarga yoki marhum vafot etgan kungacha undan pensiya (nafaqa) olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga, marhumning vafotidan so'ng tug'ilgan farzandiga, shuningdek ota-onalaridan biriga, umr yo'l doshiga yoki oilasining ishlamaydigan va vafot etganning 3 yoshga to'limgan bolalari, ukalari, singillari yoki nabiralari parvarishi bilan band bo'lgan boshqa a'zosiga zararni to'lashi shart.

Quyidagilar mehnatga layoqatsiz hisoblanadi:

- 18 yoshdan oshgan shaxslar, agar ular shu yoshga yetgunga qadar nogironligi bo'lgan shaxs bo'lib qolgan bo'lsa;

- 60 yoshga to'lgan erkaklar hamda 55 yoshga to'lgan ayollar;

- belgilangan tartibda nogironligi bo'lgan shaxs deb e'tirof etilgan shaxslar;

Oila a'zosining mehnatga layoqatsizligi bosqlangan vaqt (boquvchining vafotigacha yoki vafotidan keyin) uning zarar to'lovini olish huquqiga ta'sir etmaydi. 18 va undan katta yoshdagilari o'quvchilar o'quv yurtlarini tugatgunlariga qadar, ammo ko'pi bilan 23 yoshgacha zarar to'lovini olish huquqiga egadirlar.

### UYLARDA HAM BAYROQDAN FOYDALANISHGA RUXSAT ETILDIMI?

Davlat bayrog'idan foydalanimli mumkin bo'lgan holatlar kengaytirilganligini eshitdim. Endilikda yashash joylarida ham bayroqdan foydalinishga ruxsat etildimi?

**R. Xolmonova.**

"O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonungi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonun joriy yil 7-iyulida Prezident tomonidan imzolandi.

Qonun bilan davlat bayrog'idan foydalanimli mumkin bo'lgan holatlar kengaytirildi, jumladan:

- bayroq va uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylarida, binolarda, yashash yoki ish joylarida, transport salonida;

- bayroqdan sport musobaqalari, ommaviy, tananali va madaniy tadbirdarda, oilaviy bayramlarda,



da, xotira sanalarni nishonlashda, jamiyat va davlat arboblari, harbiy xizmatchilar dafn marosimlarida;

- xalqaro sport musobaqalari hamda O'zbekiston championatlari uchun sport kiyimlarini tayyorlash uchun bayroqning tasviri tushirilgan belgilardan foydalinish mumkin.



### O'G'LIMGA ISHONCHNOMA BERSAM BO'LADIMI?

O'g'lim 17 yoshda. Vaqtincha avtomashinamni o'g'limga ishonchnoma bilan berishim mumkinmi?

**A. Tursunov.**

Transport egasining yaqin qarindoshlari (otona, er (xotin), bolalar, aka-ukalar, opa-singillar) mazkur transport vositasidan foydalanimli va boshqarishida ishonchnoma talab etilmaydi.

Buning uchun transport vositasini egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida mazkur yaqin qarindoshlar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Biroq Siz ayni vaziyatda o'g'lingizga ishonchnoma bera olmaysiz. Chunki u hali 18 yoshga to'limgan.

Qonunchilikka ko'ra, 18 yoshga to'lgan shaxslarga avtotransport vositalarini boshqarish huquqi beriladi.

### KASALLIK NAFAQASI BERILMAYDIGAN HOLATLAR BORMI?

Ishchi-xodimlarga kasallik va shikastlananlik bo'yicha vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi berilmaydigan holatlar ham bormi?

**S. Salimova.**

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining buyrug'i asosida qabul qilingan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 23-bandiga asosan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda berilmaydi:

- ishdan yoki boshqa vazifalardan bo'yin tovash maqsadida o'z salomatligiga ataylab ziyon yetkazgan yoxud o'zini kasallikka solganda;

- giyohvandlik yoki mastlik bilan bog'liq harakatlar oqibatida, shuningdek, spirtli va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish natijasida kasallikka chalanganda (jarohatlanganda);

- jinoyat sodir qilish vaqtida jarohatlanganda;

- sud qarori asosida majburiy davolanishga yuborilganda (ruhiy kasallardan tashqari);

- hibsdan bo'lgan davrda;

- sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tish davrida.



Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

## SALOMATLIKKA JIDDIIY ZARAR YETKAZISHI MUMKIN

Idoradagi ish kasbiy xavf-xatarlardan holidek tuyiladi. Biroq shifokorlar bunday fikrda emas. Ular ofis xodimlariga ham ko'plab xavf-xatarlar tahdid solishini biladi. Agar ulardan himoyalansama, shinam ofisning zarari sog'liq uchun ko'mir konida ishlashdan ko'ra ko'proq bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy texnika, ayniqsa, kompyuter qarshisida xodimlarning soatlari, hatto kun bo'yli o'tirishi odatiy holga aylangan. Bunda monitordagagi elektromagnit nurlanishlar ta'siri, ko'zning charchashi, qo'l-kaft bo'g'imlari-



ga tushadigan bosim, axborotlar yo'qolib qolishi paytidagi asabiyashishlar inson sog'lig'iiga jiddiy salbiy ta'sir qiladi. Kompyuter qarshisida inson bo'yni, boshi, qo'li va yelka mushaklari tarang holda turadi, bu umurtqa pog'onasiga ortiqcha yuk tushiradi. Osteoxondroz va umurtqa pog'onasining qiyshayishini keltirib chiqarishi mumkin.

Shunday ekan kompyuterdan foydalanishda sog'liqni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratish shart.

## KO'ZINGIZNI ASRANG!



Kompyuter oldida ishlaganda oddiy qog'ozdag'i matnni o'qigandan ko'ra ko'zlarimizni o'rtacha 3 baravar kam pirpiratamiz. Bunda ko'zlarimiz qurib qoladi. Bu esa o'z navbatida ularning qichishiga - "quruq ko'zlar" sindromiga olib kelishi mumkin. Darvoqe, uni nafaqat kompyuter, balki batareya va konditsionerlar, aniqroq aytganda, ular suvsizlantirib yuborgan xona ham qo'zg'ashi mumkin. Ushbu sindrom ko'rish qobiliyatining tez toliqib qolishi, namiqish hissi, qovoqlarning og'irlashishi va ularni ishqalash xohishi, ko'zlarni mahkam yumish, ko'zda xas-cho'p hissi va kechasi ko'rish qobiliyatining sezilarli darajada pasayishi bilan namoyon bo'ladi.

## KO'Z NURINI TIKLOVCHI MASHQLAR

Kompyuter, planshet yoki smartfon bilan ishlash insonning ko'rish qibiliyatini yomonlashtiradi. Ushbu gadjetlardan ortiqcha foydalanish ko'zning charchashiga olib keladi. Natijada quruqlik, qizarish kabi salbiy alomatlar paydo bo'ladi. Ammo, foydali ko'z mashqlari vaqtida bajarilsa, muammoning oldini olish mumkin. Ko'zlar uchun foydali bo'lgan ko'plab mashqlar mavjud. Ularni kun davomida bir necha marta bajarish tavsiya etiladi.

1. Ko'z qorachig'ingizni o'ng va chapga harakatlantiring. (15 martadan takrorlang).
2. Ko'z qorachig'ingizni yuqoriga ko'taring va pastga tushiring. (15 marta).
3. Ko'z qorachiqlarini avval soat yo'nalishi bo'yicha, so'ng aksincha aylantiring. (10 martadan).
4. Ko'zlarni tez-tez yumib oching (100 marta).
5. Ko'zlarni kuch bilan qattiq yumib oching (10 marta).
6. Yaqin va uzoq masofalarga qarashni mashq qiling (10 marta).
7. Barmoqlar bilan yuqori va pastki qovoqlaringizni yumshoq massaj qiling.

Ushbu mashqlarni bajarish uchun ko'p vaqt kerak bo'lmaydi. Ularni uzluksiz bajarsangiz, ko'z mushaklarini bo'shashtirib, qon tomirlarni samarali oziqlantirishga erishasiz.



## IDORA XODIMLARI KASALLIKLARI

Kompyuterda ishlash jarayonida ahamiyat berishimiz mumkin bo'lgan yana bir narsa bu kompyuter sichqonchasi. Kompyuterni yoqib, sichqonchani ushlaysiz. Shu zahoti kaftingizda og'riq paydo bo'ladi. Bu nimaligini bilmaysiz? Kompyuter sichqonchasi sindromi - malakali idora xodimlari kasalligi.

### Qanday xavf solishi mumkin?

Vaqt o'tishi bilan qo'llaringiz butunlay qimirlamay qolishi mumkin, barmoqlarning sezuvchanligi yo'qoladi, mushaklar shishi-shi tufayli og'riqsiz kaftlaringizni harakatlantira olmaysiz. Sababi - bilak orqali o'rta nerv siqilishi. Bu sichqoncha bilan ishlagan vaqtida bilak bilan stolning chekkasiga tira-

nasiz. Natijada tomir va paylar qisilib qoladi. **Nima qilish kerak?**

Qo'llarning holatini nazorat qiling. Tirsak bo'g'imi va kaft bir chiziqda bo'lishi, tirsak osilib turmasdan, stolda turishi eng to'g'ri holat hisoblanadi. Sichqoncha yoki klaviatura bilan ishlaganda qo'llar 90 daraja burchak ostida bukilgan bo'lishi zarur. Tirsakni ushlab turadigan platformadan foydalaning. 1,5-2 sm. qalinlikdagi kichkina yostiqchani qo'llarning tagiga - tirsak bo'g'imiga yaqinroq joyga qo'ying.

Mashq qiling. Birinchi alomatlari paydo bo'lganda tirsak bo'g'imi va kaft mushaklarini shug'ullantirishni boshlang: kaftingizda temir soqqalarni aylantiring yoki yumshoq rezina koptokchani siqing. Bir qo'lingiz bilan ikkinchi qo'lingiz barmoqlarni yengil uqalang. Shuningdek, kaftlarni tez-tez musht qilish ham foydali. Umuman ishlash davomida qomatni tik tutib o'tirish, qo'llar holatini to'g'ri tutish va tez tez ishdan 5-10 daqiqa tanaffus qilib turish inson sog'gom bo'lishiga ko'makdir.



## TAVSIYALAR

1. Kompyuter bilan ishlash jarayonida boshni tik holatda tuting.
2. Yelkani erkin tutish kerak.
3. Gavdanini rostlagan holda o'tiring.
4. Ish jarayonida ko'zlar to'g'riga qarashi shart.
5. Kaftlar va bilaklarni baravar holda ushlang.
6. Stulga tayanganda tayanch bosimi oyoqlarga uzatilishi kerak.
7. Oyoqlar maxsus moslama ustida turishi zarur.
8. Ish ma'lumotlarini va hujjatlarni qulay joyda joylashtiring.
9. Yorug'lik monitor ekraniga tushib, yarqirab ko'rishga halaqit bermasin.

## QOIDALAR

- Ko'zlar monitoridan 50-60 sm. uzoqlikda bo'lsin;
- har soatda 10 daqiqa ko'zga dam berish va ko'z gimnastikasini bajaring;
- monitoring yorug'lik, kontrast sozlamalarini to'g'ri va qulay tarzda belgilang;
- bir xil holatda uzoq vaqt o'tirmaslik;
- monitor ko'z bilan bir kesimda joylashsin (ko'zdan balandda yoki pastda bo'lmasligi kerak);
- ko'zni yumib-ochmay uzoq tikilishni kamaytiring;
- ish xonasining o'ta qorong'i bo'lmasligini ta'minlash darkor.

Kuniga bir litrdan kam suv ichmang. Umuman, yonigizda hamisha bir stakan suv tursin. Uni xohlagan vaqtida ichib turasiz. Bu suv muvozanatini saqlashga yordam beradi.

## OSTEOXONDROZNING OLDINI OLADI

Osteoxondroz va umurtqa pog'onasining qiyshayishining oldini olish uchun jismoniy mashqlar - ertalabgi gimnastika mashqlarini kanda qilmang. Umurtqa pog'ona mushaklarini mustahkamlash uchun gavdani har tomonga egish va bukish mashqlarini o'tkazish maqsadiga muvofiqdir. Boshingizni egib, qo'llaringizni oldinga cho'zing va boshqa mashqlarni ham bajaring. Shuningdek, suvda suzish va turnikka osilish umurtqa pog'onasi uchun juda foydali mashqlardir.

Ish joyingiznda kreslo qulay bo'lishi, lekin haddan tashqari yumshoq bo'lmasligi kerak. Kreslo yoki stulga orqa bel bilan emas, balki orqa miya egrini chizig'iga mos holda o'tirish tavsiya etiladi. Agar faqat orqa o'rindiqli stul yoki kreslo mavjud bo'lsa, bel sohasiga maxsus suyanchiq qo'yish lozim.



## QIZIQARLI VA MUROSASIZ O'TDI



16-sentabr kuni shaxrimizdagi "Tamaddun" o'quv markazi sport zalida kombinat yoshlari o'rtaida sportning stol tennisi turi bo'yicha



musobaqa bo'lib o'tdi.

Kombinat yoshlar yetakchilari Kengashi tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur musobaqada 35 yoshgacha bo'lgan kombinat yoshlari ishtirok etishib, g'oliblik uchun kurash olib borishdi.

Qiziqarli va murosasiz o'tgan o'yinlarda xotinqizlar o'rtaida 1-o'rinni Aziza Jumayeva egalladi. Gulmira Kim 2-o'rinni, Xurshida Abduvahobova 3-o'rinni bilan kifoyalanishdi.

Yigitlar o'rtaida Umid Saidov g'olib chiqdi. Undan keyingi o'rirlarni Abbosxon Bahodirov va Farrux Alimov qo'lga kiritdi.

Musobaqada g'olib va sovrindor bo'lgan yigitqizlar kombinat boshqaruvi tomonidan pul mukofoti va esdalik sovg'a bilan taqdirlanishdi.



"Metallurg" superliganing 18-turida Jizzaxning "So'g'diyona" jamoasini qabul qildi. Markaziy stadion kelgusi mavsumga tayyor-garlik uchun ta'mirga yopilayotganligi bois "So'g'diyona"ga qarshi uchrashuv "Metallurg"ning Bekoboddagi 2023-yilgi mavsumdagi oxirgi uchrashuvi edi. O'z muxlislarini uyda xursand qilishga jiddiy tayyorlangan "Metallurg" yakunda o'z maqsadiga erishdi.

Bevosita o'yin tafsilotlariga to'xtaladigan bo'lsak, "Metallurg" o'yinni shiddatli hujumlar bilan boshlab, mehmonlarni jarima maydonchasiga qamab qo'ydi. Bu esa birinchi taymdayoq o'z samarasini berdi. Bekobodliklarning xavfli hujumlaridan birini qaytarish chog'ida jizzaxliklar himoyachisi Ivan Yosovichni jarima maydoni ichida qo'pollik bilan to'xtatib qoldi. 11 metrlik jarima zarbasini jamoa sardori Zabixillo O'rinboyev aniq amalga oshirdi - 1:0. Goldan keyin ham tashabbus mezbonlar tomonida bo'ldi. Biroq yaratilgan vaziyatlardan foydalanishda yigitlarimizga omad kulib boqmadı.

## ISHONCHLI G'ALABA

Ikkinchitaymda mag'lubiyatdan qutilish uchun mehmonlar o'yinni ku-chaytirishga harakat qilib ko'rdi. "Metallurg"da esa qarshi hujumlar uchun imkoniyatlar ko'paydi. Shunday hujumlardan birida Zabixillo O'rinboyev jamoadoshlari boshlab bergan hujumni golga aylantirdi. Gol juda ham chiroli bo'ldi! Zabixillo to'pni to'xtamasdan, yerga tushirmasdan kuchli zarbasi bilan raqib darvozasi to'riga joylab qo'ydi.

"So'g'diyona" futbolchilari hali o'zlariga kelib ulgurishmasidan bekobodliklar yana muvaffaqiyat qozonishdi. Bu safar Kerim Palich individual mahorati evaziga hisobni yirik ko'rinishga keltirib qo'ydi - 3:0.

O'yinning bunday tus olishiga tayyor bo'lmagan Ivan Boshkovich jamoasida ketma-ket o'zgarish qildi. Ammo ruhiyati tushib ketgan jamoa faqatgina 79-daqqiqa bitta javob golini uddaladi, xolos. "Metallurg" ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi.

MARKAZIY STADION  
MUKAMMAL TA'MIRLANADI

so'nggi sakkiz turi taqvimini ishlab chiqdi. Etimol taqvimda yana kichik o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Ammo aynan shu taqvim murabbiylar shtabi hamda futbolchilar uchun hal qiluvchi bahslarga tayyorgarlik rejasini ishlab chiqish yo'lida dasturulamal vazifasini o'tab beradi.

Xabarlingiz bor, Bekoboddagi "Metallurg" markaziy stadioni mukammal ta'mirlashga yopilayotganligi bois jamoamiz championatning qolgan barcha uchrashuvlarini safarda o'tkazadi. 22-sentabr kuni jamoamiz safarda OKMKga qarshi maydonga tushdi. Bu o'yindan tashqari jamoamiz yana 5 ta o'yinni Olmaliq shahrida mezon maqomida o'tkazadi. Shuningdek, Yapon, Qarshi hamda Toshkent shaharlari ga safar qilamiz.

Xullas, kuz keldi, jo'jani sanash fursati yetdi. Ayni paytda "Metallurg" jamoamiz xavfli mintaqadan biroz uzoqlashib olgan. Jamoamiz hamda muxlislarimiz o'zlarini yanada xotirjam his etishlari uchun qolgan o'yinlarda maksimal harakat qilish, g'alaba qozonish uchun maydonga chiqish, qimmatli ochkolarni jamg'arish talab etiladi.

Mamlakat milliy championatida 18-tur bahslaridan keyin tanaffus yuzaga keldi. Bu FIFA kunlari bilan bog'liq. Milliy terma jamoalar uchun yig'inlar o'tkazish imkoniyati taqdim qilinishi bois kuzda milliy championat taqvimi juda qiyinlashib ketadi. Katta tanaffuslar sabab futbolchilarni o'yin ritmida, tonusda ushlab turish oson emas.

O'zbekiston professional futbol ligasi terma jamoalar hamda klublarimizning xalqaro maydonlardagi uchrashuvlari, yig'inlaridan kelib chiqib Superliganing

ZABIXILLO  
TENGSIK

O'zbekiston professional futbol assotsiatsiyasi har oy yakunlariga ko'ra eng kuchli futbolchi va eng chiroli gol kiritgan futbolchilarni aniqlab boradi. Avgust oyi bo'yicha "Metallurg" jamoasi sardori Zabixillo O'rinboyev tengsiz deb e'tirof etildi. U futbolchilar o'rtaida ikkita yo'nalish bo'yicha ham laureat deb topildi.

Zabixilloning "So'g'diyona" jamoasi darvozasiga kiritigan goli "Avgust oyining eng chiroli goli" deb baholangandi. Shuningdek, u "Avgust oyining eng yaxshi futbolchisi" nominatsiyasida ham g'alaba qozondi. Bu yo'nalishda "Metallurg" sardoriga Alibek Davronov, Farrux Sayfiyev, Vladimir Nazarov hamda Dragan Cheranlar raqobat ko'rsatishgandi. So'rovnomma yakunida esa eng ko'p ovozni Zabixillo O'rinboyev oldi va Superliganing avgust oyi bo'yicha eng yaxshi o'yinchisi deb e'tirof etildi.

Zabixillo O'rinboyevni muxlislarimiz nomidan laureatlik bilan tabriklaymiz va yutuqlar bar-davom bo'lishini tilaymiz!

## BUNAQASI HALI BO'L MAGAN EDI



Futbol bo'yicha ayollar o'rtaida O'zbekiston oliy ligasida qatnashayotgan jami 10 ta jamoa o'rtaida ikki davra o'yinlari o'tkazildi. Afsuski "Metallurg - W" jamoasi bu mavsum oliy ligada juda bo'sh qatnashmoqda. Jamoa o'tkazilgan 18 ta o'yinning barchasida mag'lubiyatga uchradi. Bu o'yinlarda raqib darvozasiga 2 ta to'p kiritilib, 170 ta to'p o'tkazib yuborildi.

Oliy ligada dastlabki 5 o'rinni egallagan jamoalar "Sevinch", "So'g'diyona - W", "Bunyodkor - W", OKMK - W, "Lokomotiv - W" A guruhida sovrinli o'rinalar uchun kurashga kirishdilar.

Oliy liganing V guruhida "Qizilqum - W", "Paxtakor - W", "Neftchi - W", "Buxoro - W" hamda "Metallurg - W" jamoalari joy egallahgan.

10-sentabr kuni ikkinchi bosqich bahslari boshlandi. V guruhi musobaqasida qatnashayotgan Bekobodning "Metallurg-W" jamoasi qizlari Toshkentda "Paxtakor" jamoasi bilan kuch sinashdi. Toshkentliklarning to'liq ustunligida o'tgan o'yinda maydon egalari 8:0 hisobida yirik g'alaba qozonishdi.

19-turdan so'ng "Sevinch" jamoasi barcha o'yinlarda g'alaba qozonib 57 ochko bilan musobaqada yakka peshqadamlik qilmoqda. 2-o'rinda 45 ochko bilan "So'g'diyona-W", 3-o'rinda 42 ochko bilan "Bunyodkor-W" bormoqda.

"Metallurg-W" mavsumda 19 o'yinda bitta ham g'alaba va durangga erishmagan yagona jamoa bo'lib qolmoqda.

### HURMAT CHEGARASIDAN OSHGAN SHOGIRD

Kurash san'atining butun sir-asrорларини о'ргangan bir pahlavon bor edi. Raqiblari uning aql bovar qilmas o'yinlari qarshisida doim mag'lub edilar. Vaqt o'tgan sayin pahlavon ham sekin-asta keksaya bordi.

U o'z shogirdlaridan biriga kurashning barcha usulini o'rgatdi. Shogirdi kuragi yerga tegmaydigan, eng zo'r pahlavon bo'lib yetishdi. Yer yuzida unga teng keladigani topilmay qoldi. Shundan so'ng, u g'ururga berilib, ustoz bilan olishish uchun jahonda undan ham yaxshiroq kurashchi qolmaganini aytib maqtana boshladi. Bir kuni podshoh huzurida olib borilgan kurashda u shunday dedi:

- Ustozim keksaydi. Endilikda kuch-quvvatda menga tengi qolmadni.

Bu havoli gaplar podshohga yoqmadni. Aqli podshoh ustozni baribir shogirdini yengishiga ishonchi komil edi. Podshoh ustoz va shogirdning kurashga chiqishlarini istadi.

Kurash boshlandi. Ustoz shogirdining kuch-quvvatda o'zidan yuqori ekanini angla-



di. Shu bilan birga har qanday ustoz kabi shogirdining kuchli va kuchsiz tomonlarini ham yaxshi bilar edi.

Darhol shogirdining faqat o'zi biladigan kuchsiz tomonidan foydalaniб, uni boshidan yuqori ko'tarib, aylantirib yerga urdi. Tomoshabinlaridan tahsin-ofarin tovushlari ko'tarildi.

Podshoh bu natijadan nihoyatda mammun bo'ldi. Xursandchilagini yashirmay, tabriklash uchun kurash maydoniga, keksa pahlavonning

oldiga keldi.

Podshoh ustozga mukofotu sovg'alar ehson qildi. Va havolanib ketgan yosh kurashchiga qarab:

"O'zingni ustozingdan ham yuqori qo'ymoqchi bo'lding. Hurmat chegarasidan oshib, ustozingni kamsitding. Uyalmasdan u bilan bo'y o'chashga turding va sharmanda bo'lding. Bu senga saboq bo'lsin!" deb ta'na va malomat qildi. Shogirdi bu so'zlarni eshitarkan, o'z-o'zidan uyalib ketdi. Ustozining qo'llarini tavof qilib, undan kechirim so'radi.



Usta borida qo'lingni tiy,  
Ustod borida – tilingni.

\*\*\*

Usta bo'lsang, ustozingni unutma.

\*\*\*

Ustozingga tik qarasang, to'zasan,  
Hurmat qilsang, asta-asta o'zasan.

\*\*\*

Deydilar, dunyoda asli kim aziz,  
Aytdilar ustozdir, ustoz begumon,  
Tag'in aytdilarki, aziz shubhasiz,  
Ustozlar qadriga yetolgan inson.

\*\*\*

Jahonda bo'lmasa muallim agar,  
Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar.

\*\*\*

Har ishning bir ustasi bor,  
Har ustaning bir ustozni bor.

### DONOLAR BISOTIDAN

#### MO'JIZA

"Agar bu xabarni beshta odamga yuborsangiz, mo'jiza sodir bo'ladi". U xabarni o'qib bo'lgach, bir qancha odamga yubordi. Biroq mo'jiza sodir bo'lindi. Kayfiyati buzildi: "Qani, hech nima sodir bo'lindiku?"

Yonidagi singlisi hazil aralash: "Shuni anglab yetganingizning o'zi bir "mo'jiza" emasmi?" – dedi piching bilan opasiga...

Rahmat Bobojon.

#### AQL

Bu dunyoda eng to'g'ri taqsimlangan narsa – aql. Chunki shu paytgacha hech kim aqli kamligidan shikoyat qilmagan.

#### MIYA VA OSHQOZON

Oshqozon miyadan ko'ra aqlliq, chunki u bo'sh bo'lsa bu haqida egasiga xabar bera oladi. Lekin miya bu ishni qila olmaydi.

#### BOLA EDIM

Onamga "Daraxtga chiqaman, yordam bering!" dedim. "Birov chiqarib qo'yan joydan tusholmaysan, qulaysan" dedi.

Bir umr bu gapni unutmadi...

### YAXSHI GUMONDA BO'LING!

Uch do'st kechasi yo'lda ketayotib, yo'l chetida bir kishining o'ra qaziyotganini ko'rib qolishibdi.

Shunda ulardan biri sheriklariga: "Qaranglar, ana u kishi yo'lning chekkasida o'ra qaziyapti. Menimcha, u kimnidir o'ldirgan bo'lsa kerak, tunda ko'mmoqchi shekilli?", debdi.

Ikkinchisi: "Yo'q, yo'q, u kishi qotil emas! U kishi hech kimga ishonmas ekan, shuning uchun mol-mulkini kechasi odamlardan yashirib berkityapti shekilli", debdi.

Uchinchisi esa ularga qarab: "Unday ham emas, bunday ham emas. Bu kishi solih inson, bu kishi odamlar foydalanishi uchun quduq qaziyapti", debdi.

Ha, har bir inson o'zining holatidan kelib chiqib fikr yuridi. Yaxshi inson o'zga odamlar haqida yaxshi, yomon inson esa o'zgalar haqida yomon gumonda bo'ladi.

### BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Olmaxonlar yemishini qaerga berkitganini unutib qo'ysa nima bo'ladi?



Qaysi hayvon sutkaning 22 soatini uxbab, 2 soatini ovqatlanib o'tkazadi?

\*\*\*

Qunduzlar suvda uxlaganda oqim ularni turli tomonlarga oqizib ketmasligi uchun nima qilishadi?

\*\*\*

Ortitofobiya nima?

Siyoh dog'larini ketkazish uchun dog'ning ustiga nima bilan ishlov berish kerak?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish sohasi xodimlari kunini belgilash to'g'risida qonun 2017-yil 21-dekabrda qabul qilingan.

\*\*\*

Birinchi temiryo'l 1825-yil, Buyuk Britaniyada qurilgan?

\*\*\*

Jazoir sayyoramizda zilzilalar eng kam sodir bo'ladigan mamlakat.

\*\*\*

Zomin O'zbekistonning eng keksa qo'riqxonasi.

### XANDALAR

– Hoy birodar, nega qarmoqning birini suvg'a, ikkinchisini o't-o'lanlar orasiga tashlab o'tiribsan?

– 10 ming bersang sababini aytaman.

– Mana ol 10 ming. Endi sababini ayt! Judayam qiziqib ketyapman!

– Suvga tashlagan qarmog'imga hali birorta ham baliq ilinmadni. O't-o'lanlar orasiga tashlagan qarmog'imdan 50 ming ishlab oldim...

\*\*\*

Mushuk sichqonni tutib olib, so'rabdi:

– Yashashni istaysanmi?

Sichqon ham, ko'zini suzgancha, so'rabdi:

– Kim bilan?

– O'l, suyuq oyoq buzuqi, ishtahani rasvo qilding!

\*\*\*

O'rmonda fil qochib ketayotgan ekan. "Nega ochyapsan?" deb so'rashdi.

– Sher o'rmondagi hamma jirafalarni o'ldirishga buyruq beribdi, – deya javob qildi u.

– Sen jirafa emas, filsanku?

– Buni bilaman. Lekin vaziyatni kuzatib borishni u eshakka topshiribdi.